O‘ZBEK DEMONOLOGIYASINING DINIY-MIFOLOGIK ASOSLARI: JIN VA PARI OBRAZLARI MISOLIDA

Yuldasheva Asalxon ***UrIU magistranti Elektron pochata***
asalxonmadiyarqizi@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek demonologiyasining diniy-mifologik asoslarini jin va pari obrazlari misolida o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda islomgacha bo‘lgan animistik va zardushtiylik qarashlari hamda islomiy ontologiyadagi jin tushunchasining o‘zaro sintezi tahlil qilingan..

Kalit so‘zlar: demonologiya, jin, pari, islomiy ontologiya, Zardushtiylik, mifologik tafakkur, semantik sintez, o‘zbek folklori.

Abstract: This article is devoted to the study of the religious and mythological foundations of Uzbek demonology using the example of the images of jinn and fairies. The study analyzes the mutual synthesis of pre-Islamic animistic and Zoroastrian views and the concept of jinn in Islamic ontology.

Key words: demonology, demon, fairy, Islamic ontology, Zoroastrianism, mythological thought, semantic synthesis, Uzbek folklore.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению религиозно-мифологических основ узбекской демонологии на примере образов джиннов и фей. В исследовании анализируется взаимосвязь доисламских анимистических и зороастрийских взглядов, а также концепция джинна в исламской онтологии.

Ключевые слова: демонология, демон, фея, исламская онтология, зороастризм, мифологическая мысль, семантический синтез, узбекский фольклор.

O‘zbek xalqining demonologik tasavvurlari uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, unda islomgacha bo‘lgan qadimiy e’tiqodlar (animizm, totemizm, zardushtiylik) va islom dini ta’limotining o‘ziga xos sintezi aks etgan. Demonologik

leksika (demononimlar) tilning eng qadimiy va murakkab qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ushbu maqolada o‘zbek demonologiyasining diniy-mifologik asoslari jin va pari obrazlari misolida o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ushbu obrazlarning tarixiy-genetik ildizlarini, ularning diniy ontologiyadagi o‘rnini va semantik evolyutsiyasini aniqlashdan iborat.

Jin / ajina — o‘zbek tilida eng keng tarqalgan umumlashma demonologik nomdir. *Jin-ajina*, *jin-pari* kabi juft so‘zlar shaklida ham faol qo‘llanadi. Jin leksemasining semantik o‘zagi arab tilidagi *ja-na-na* fe’liga borib taqaladi va lug‘aviy jihatdan “to‘silgan”, “yashiringan”, “pardalangan” ma’nolarini ifodalaydi. Xalq tilidagi “ajina” varianti ham aynan shu o‘zakdan hosila bo‘lib, inson ko‘zidan to‘silgan, lekin borliqda mavjud bo‘lgan g‘aybiy vujudlarni anglatadi.

Islomiy ontologiyaga ko‘ra, jinlar materiyasi olovdan (nur va loydan farqli o‘laroq) yaratilgan, insonlar bilan parallel ravishda yashovchi, ammo sensor idrok (ko‘rish) chegarasidan tashqaridagi mavjudotlardir. Islom aqidasida g‘ayb (metafizik olam) tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Jinlar fenomeni Alloh va Uning Rasuli tomonidan xabar berilgan, empirik tajriba orqali to‘liq isbotlab bo‘lmaydigan, ammo iymon keltirish shart bo‘lgan haqiqatlar sirasiga kiradi. Qur’oni Karimdagi maxsus “Jin” surasi va ko‘plab oyatlarda (masalan, “Ins va jin” juftligi) ularning real mavjudligi tasdiqlangan. Xususan, Abdulloh ibn Mas’uddan (r.a.) rivoyat qilingan hadisda Payg‘ambar sallollohu alayhi va sallamning jinlarga Qur’on tilovat qilib berganliklari va ularning islomni qabul qilganliklari tarixiy-diniy fakt sifatida keltiriladi.

Jinlarning tabiati o‘zgaruvchan (metamorfozaga moyil) bo‘lib, ular turli biologik shakllarga kirish imkoniyatiga ega. Manbalarda ularning tuya, sigir, qo‘y, xachir, ot, it, ilon, chayon va hatto odam qiyofasida namoyon bo‘lishi qayd etilgan. Bu esa

folklordagi “qora it”, “ilon pari” yoki “gapiradigan hayvon” motivlarining diniy asoslari mavjudligini ko‘rsatadi. Qadimgi arab an’analarida “Mesh Theory” deb nomlanuvchi tushuncha jin va demonlarning istalgan shaklga kirishiga imkon beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, ilon birinchi o‘rinda turadi va *jānn* so‘zi ham ilon, ham demon/shaytonni anglatadi.

Jinlar jamiyati insonlarnikiga tipologik jihatdan o‘xshashdir:

- Ularda ham jinslar (erkak-ayol), oila, nikoh va ko‘payish mavjud.
- Jinlar mo‘min (musulmon) yoki kofir (Iblisga ergashganlar) bo‘lishi mumkin. Kofir jinlar — shaytonlar vazifasini o‘taydi.
- Ularning yemishi asosan suyak va tezak (hayvonlari uchun) ekanligi hadislarda bayon qilingan.

Jinlarning insonga ta’siri masalasi ikki xil aspektda namoyon bo‘ladi:

1. *Yovuz jinlar (shaytonlar) insonga jismoniy va ruhiy ozor berishi, uning ongini chalg‘itishi (vasvasa) mumkin. Xalq tilida bu jin chalishi yoki jin kirishi deb ataladi.*
2. *Jamiyatda jinlar bilan aloqa qilishni da’vo qiluvchi folbin va azayimxonlar faoliyati keng tarqalgan. Diniy manbalar jinlardan yordam so‘rash, ularga atab jonliq so‘yish va ularni “g‘aybni biluvchi kuch” deb e’tiqod qilishni qat’iy qoralaydi va shirk (Allohga sherik qilish) deb baholaydi. Aslida, jinlar g‘aybni bilmaydi va ilohiy qonunlarga (qadar) bo‘ysunuvchi ojiz maxluqlardir.*

Islomgacha bo‘lgan davrda odamlar “vodiy egalari”dan (jinlardan) qo‘rqib, ulardan panoh tilagan bo‘lsalar (bu jinlarning kibrini oshirgan), islom ta’limoti bu qo‘rquvni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatdi. Jinlar va sehrdan himoyalanishning yagona legitim yo‘li — *ruqya* (dam solish), ya’ni “Falaq” va “Nos” suralarini o‘qish, tozalik (tahorat) va Allohni zikr qilishdir. Jinlarga atab qon chiqarish yoki ulardan

madad kutish esa e’tiqodiy buzilish hisoblanadi. Demak, *jin* konsepti o‘zbek madaniyatida shunchaki mifologik obraz emas, balki jiddiy teologik asosga ega bo‘lgan, insonning ruhiy olami, qo‘rquvlari va e’tiqodiy qarashlarini tartibga soluvchi murakkab fenomendir.

O‘zbek tili va folklorida faol qo‘llanuvchi, bugungi kunda nafosat va go‘zallik timsoli sifatida qabul qilinuvchi *pari* leksemasining tarixiy ildizlari qadimgi eroniy mifologiyaning murakkab qatlamlariga borib taqaladi. “Avesto”da ushbu tushuncha *pairika* shaklida qayd etilgan bo‘lib, dastlabki davrda u ijobiy emas, balki o‘ta kuchli salbiy semantikaga ega bo‘lgan.

Qadimgi kosmogonik tasavvurlarga ko‘ra, *pairika* (pari) — yovuzlik xudosi Ahriman tomonidan yaratilgan, latif va g‘aybiy vujudga ega bo‘lgan, insonlarni, xususan, mazdiyasna (zardushiylik) e’tiqodidagilarni o‘z husni jamoli bilan yo‘ldan ozdiruvchi muannas (ayol) jinsidagi yovuz ruhdir. Ular Ahriman qo‘shinining asosiy kuchlari sifatida borliqning muqaddas unsurlari — Yer, Suv, O‘simlik va Olovga qarshi kurashuvchi jodu (jahi/jadu) vazifasini bajarganlar. Eronlik olim I.Purdovudning tadqiqotlariga ko‘ra, parilarning koinotdagi asosiy vazifasi hayot manbai bo‘lgan suvni bo‘g‘ishdir. Mifologik syujetlarda parilar (*pairika*) dumli yulduz shaklida namoyon bo‘lib, yomg‘ir va baraka farishtasi Tishtir (Sirius yulduzi) bilan doimiy jang olib boradilar. Ularning maqsadi bulutlarni to‘sish, yog‘ingarchilikni to‘xtatish va yer yuzini qurg‘oqchilik hamda vayronaga aylantirishdan iborat bo‘lgan.

Mumtoz fors va turkiy adabiyotda, xususan, Alisher Navoiy asarlarida pari obrazi semantik siljishga (amelioratsiya) uchrab, “jinning urg‘ochisi” degan ibtidoiy ma’nodan uzoqlashgan va “nihoyatda go‘zal”, “inson aqlini lol qoldiruvchi sohibjamol” mazmunini kasb etgan. Bu o‘zgarishda bir necha omil muhim rol o‘ynagan:

- **Islomiy tasavvuf ta’siri:** Tasavvufda dunyoviy go‘zallik ilohiy go‘zallikning aksi sifatida talqin qilingan. Pari obrazi ana shu “ilohiy jamol”ning timsoliga aylangan.
- **Mumtoz adabiyotning estetik ideallari:** Fors-tojik va o‘zbek mumtoz she’riyatida (Sa’diy, Hofiz, Navoiy) pari “mahbuba”, “ma’shuqa” obrazining eng oliy darajasi sifatida qo‘llangan.
- **Xalq ertaklarining transformatsiyasi:** Xalq ertaklarida pari asta-sekin yordamchi, homiy obrazga aylangan.

Ingliz tilidagi *Fairy* va o‘zbek (fors) tilidagi *Pari* leksemalari nafaqat fonetik o‘xshashlikka, balki chuqur tarixiy-genetik aloqalarga ega. G‘arb mifologiyasida *Fairy* (yoki fay, faerie) atamasi kelib chiqishiga ko‘ra lotincha *fata* (taqdir) so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, qadimgi fransuz tilidagi *faerie* shakli orqali ingliz tiliga o‘tgan. Bu o‘rinda *Fairy* dastlab shunchaki go‘zal mavjudot emas, balki inson taqdiriga ta’sir o‘tkazuvchi, uni o‘zgartiruvchi kuch (fate) sifatida tushunilgan. Bu esa Sharq folkloridagi parilarning qahramonlar taqdirini o‘zgartirishi (baxt berishi yoki yo‘ldan ozdirishi) motivi bilan tipologik jihatdan mos keladi.

Yevropa demonologiyasida Fairylarning kelib chiqishi bo‘yicha yagona to‘xtam yo‘q, ammo eng mashhur nazariyalar ularni islomiy va xristian demonologiyasi bilan bog‘laydi:

- Xristian an’anasidagi bir qarashga ko‘ra, farishtalar isyon ko‘targanda, Xudo jannat eshiklarini yopadi. Jannatda qolganlar — farishta, do‘zaxga tushganlar — demon (shayton) bo‘ladi, osmon va yer oralig‘ida qolganlar esa Fairylarga aylanadi. Bu nazariya islomdagi jinlarning olovdan yaratilgani va farishtalardan pastroq maqomda ekanligi haqidagi qarashlarga yaqindir.
- Tarixchilar (masalan, Bartelemi d'Erbelo) fikricha, Yevropa folkloridagi Fairylar qadimgi Eron mifologiyasidagi Peri (Pari)lardan andoza olingan yoki ularning ta’sirida

shakllangan. Islomgacha bo‘lgan davrda va “Shohnoma”da parilar qanotli, go‘zal tabiat ruhlari sifatida tasvirlangan va bu tasavvur ilk migratsiyalar davrida Yevropaga ko‘chgan bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy ertaklarda Fairylar mehribon qanotli qizchalardek tasvirlansa-da, arxaik folklorda ular ancha xavfli mavjudotlardir. Zamonaviy tibbiyot paydo bo‘lgunga qadar, sil kasalligi (tuberculosis) va tug‘ma nuqsonlar fairylarning ta’siri deb hisoblangan. Bu turkiylardagi alvastining tug‘ruq asoratlariga sabab bo‘lishi bilan aynan bir xil funksiyadir.

Sharq va G‘arb mifologiyasidagi eng barqaror universaliya — bu *temirning himoyalovchi kuchidir*. Ingliz va kelt folklorida Fairylardan himoyalanish uchun sovuq temir (cold iron) eng samarali vosita hisoblangan. Shuningdek, kiyimni teskari kiyish, cherkov qo‘ng‘iroqlari va oziq-ovqat (non) ham himoya choralari sifatida qo‘llanilgan.

Turkiy xalqlarda ham alvasti yoki jindan saqlanish uchun beshik boshiga pichoq, qaychi (temir) qo‘yilishi, kiyimning teskari kiyilishi kabi irimlar mavjudligi, bu ikki madaniyatning mifologik tafakkuri bir xil arxetiplarga asoslanganini ko‘rsatadi.

Fairylar inson bolalarini o‘g‘irlab, o‘rniga o‘zlarining xunuk yoki kasalmand bolalarini (changeling) qoldirib ketishiga ishonilgan. Bu motiv turkiy xalqlardagi “Alvasti bolasi” yoki “Jin chalgan bola” tushunchalarining G‘arbdagi muqobilidir.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida demon obrazining diniy-mifologik talqini o‘ziga xos badiiy-estetik xususiyatlarga ega. Sarvinoz Nurullayevaning tadqiqotiga ko‘ra, zamonaviy o‘zbek she’riyatida demon obrazi mifologik tafakkur va islomiy qarashlar sintezi asosida talqin qilinadi. Shoirlar demon obrazidan inson ruhiyatining qorong‘u tomonlarini, jamiyatdagi illatlarni va ma’naviy tanazzulni ramziy ifodalashda

foydalanadilar. Shu bilan birga, ba’zi she’riy talqinlarda demon obrazi islomiy tasavvufdagi “nafs” tushunchasi bilan bog‘lanib, insonning ichki kurashlari va ma’naviy kamolotining ramziga aylanadi.

O‘zbek demonologiyasining diniy-mifologik asoslarini jin va pari obrazlari misolida o‘rganish quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Jin konsepti o‘zbek madaniyatida shunchaki mifologik obraz emas, balki jiddiy teologik asosga ega bo‘lgan, insonning ruhiy olami, qo‘rquvlari va e’tiqodiy qarashlarini tartibga soluvchi murakkab fenomendir. Uning *j-n-n* o‘zagining “to‘silganlik, yashirinlik” semantikasi (*jannat, majnun, janin, janon* so‘zlarida ham namoyon bo‘ladi) jinlarning asosiy ontologik belgisi — ularning moddiy nigohdan to‘silganligini ko‘rsatadi.
2. Pari obrazining qadimgi eroniy demonologiyadagi salbiy funksiyasidan (yomg‘irni to‘suvchi, suvni bo‘g‘uvchi yovuz ruh) islomiy tasavvuf va mumtoz adabiyot ta’sirida yuz bergan semantik o‘zgarish (amelioratsiya) bosqichlari aniqlandi. Bu o‘zgarishda “yovuzlik” semantikasidan “go‘zallik” semantikasiga o‘tish kuzatiladi.
3. Jin va pari obrazlarining tipologik parallellari (xususan, G‘arbdagi Fairy obrazi bilan) Sharq va G‘arb mifologik tafakkuridagi umumiy arxetiplik asoslarni, xususan, “temirning himoya kuchi”, “inson bolalarini almashtirish”, “tug‘ruq va kasalliklarga ta’sir qilish” kabi universaliyalarni ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. // II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 229.
2. Xontemirova, K. (2022). Comparative study of demonological and mythological characters in Uzbek and English languages. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 45–48.

3. Comparison of demonological and mythological characters of Uzbek, Russian and English folklore. (2023). Zenodo. https://zenodo.org/records/8249736
4. ToshDO‘TAU, D. Yovuz yaratiliqlarning o‘zbek folklorida aks etishi. Conferences.tsuull.uz. http://conferences.tsuull.uz/index.php/conferences/article/view/487
5. Nurullayeva, S.M. (2025). The description and interpretation of the religious-mythical image of "demon" in modern Uzbek poetry. JournalNX. https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/5608
6. Al Basty — Wikipedia. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Al_Basty
7. Alvasti — Vikipediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alvasti
8. Pulatova, S.K. (2026). Archetypal foundations and national interpretation of the water fairy image in English and Uzbek literature. EIJMR. https://www.eijmr.org/conferences/index.php/eimrc/article/view/2014
9. Dev — Vikilug‘at. https://uz.wiktionary.org/wiki/dev